

## HAYOTIY BARDOSHLILIKNI SHAKLLANTIRISHNING O'TMISHDAGI MANBALARDA TALQIN ETILISHI

Mannabova E'zoza Baxromjon qizi  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

*Annotatsiya: Hayotiy bardoshlilikni shakllantirish borasida o'tmishdan turli qarashlar va yo'llar mavjud. Ushbu maqolada hayotiy bardoshlilikni shakllantirishda Qur'oni Karim, hadislar, mutasavvuf va qomusiy allomalaridan asarlaridan parchalar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, islom psixologiyasi hayotiy bardoshlilikning kategoriyalari (sabr, taqvo, qanoat) haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: hayotiy bardoshlilik, islom psixologiyasi, aqiyda, sabr, taqvo, qanoat, qazo, qadar.*

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОСТРОЕНИЯ ЖИЗНЕСТОЙКОСТИ В ИСТОЧНИКАХ ПРОШЛОГО

Маннабова Эъзоза Бахромжоновна  
Докторант Международной Исламской Академии Узбекистана

*Аннотация: В прошлом существуют разные взгляды и способы повышения жизнестойкости. В данной статье анализируется Священный Коран, хадисы и отрывки из трудов мистиков и учёных-энциклопедистов в формировании жизнестойкости. Исламская психология также обсуждает категории жизнестойкости.*

*Ключевые слова: жизнестойкость, исламская психология, вероубеждение, терпение, набожность, довольство, судьба, предопределение.*

### THE INTERPRETATION OF THE BUILDING HARDINESS IN PAST SOURCES

Mannabova Ezoza  
Doctoral student of the International Islamic Academy of Uzbekistan

*Annotation: There have been different views and ways of building hardness in the past. This article analyzes the Holy Quran, hadiths and excerpts from the works of suffists and encyclopedic scholars in the formation of hardness. Islamic psychology also discusses the categories of hardness.*

*Key word: Hardiness, Islamic psychology, Aqeedah, Patience, Piety (Taqwa), Satisfaction, Predestination (Qado and Qadar)*

Asr boshidan buyon qiyin hayotiy vaziyatga bardoshlilik masalasi psixologiya sohasida tadqiqot obyekti sifatida faol o'r ganilmoqda. Shunday bo'lsa-da muammo boshqa shaklda qadim zamonlardan buyon o'r ganilib, qiyin vaziyatlardan chiqish uchun turli yo'llar o'r ganib kelinadi. Ajdodlar tajribasidan oqilona foydalanish hamma avlod uchun keying faoliyatda kamroq kuch sarflashga olib keladi. Biz islom psixologiyasi nuqtayi nazaridan ushbu masalaga to'xtalamiz.

Islom psixologiyasi - bu psixologiya fanining bir sohasi bo'lib, islom ta'limotlari, tamoyillari va qadriyatlarini psixologiyani o'r ganish va amaliyotiga kiritadi. U inson xatti-harakatlarining ma'naviy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini integratsiyalash orqali ruhiy salomatlik va farovonlikka yaxlit yondashuvni taminlashga qaratilgan. [1]

Psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, hayotiy bardoshlilik tushunchasi qiyin hayotiy vaziyatlarda sabrlilik, chidamlilik, shukronalik bilan munosabatda bo'lishni ifodalaydi. Qadimgi manbalar tahlili esa mazkur masalaning tarixdanoq dolzarb bo'lganligini asoslashga doir ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi.

Ma'lumki, ajdodlarimizning turmush tarzida chidamlilik, sabr-toqat, ayniqsa shukronalik tarbiyasi uzoq tarixiy ildizga ega. Ular farzandlariga yoshligidan boshlab qiyin hayotiy vaziyatlarda, muammolarga duch kelganda, qiyinchiliklarga sabr bilan munosabatda bo'lish, shukr qilish, ularni yengib o'tish, bardoshli bo'lish kabi sifatlarni tarbiyalashga alohida urg'u bergenlar.

O'tmishdagi manbalar, xususan, islom dinining asosi bo'lgan Qur'oni Karimda va Hadisi shariflarda, shuningdek tasavvuf va qomusiy allomalarimiz (Umar Ibn Xatob, Ali Ibn Abu Tolib, Yusuf Xos Hojib, Junayd Bag'dodiy, Zunnun Misriy, Abu Ali Ibn Sino, Munoviyl, Buxoriy Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy) asarlarida shaxs hayotida sodir bo'ladigan turli xil qiyinchiliklar va bunday

paytda inson o’zini qanday tutishi lozimligi haqida gapirib, aytganlar.

Islom ruh bilan jasad orasida o’rtacha yo’l tutib, ikkovlari teng darajada, deb qo’ygan emas. Balki Allohnning hikmati taqozosni bilan, Islom ilm va tabiat qonunlariga asosan bino qilingan. Ilm aytadiki, “Sog’ tanda - sog’ aql”. Ruhiy taraqqiyot tananing ko’p hojatlaridan mahrum qilish orqali hosil bo’lmaydi, balki o’sha hojatlarni o’rtacha holda qondirish lozim, shu bilan birga Qur’on ta’kidlab o’tadiki, oxirat hayoti - bu dunyo hayotidan yaxshidir. Har bir musulmon uchun ko’zlagan maqsadi, ruhiy kamolotga erishishdir. Shuning uchun Alloh oxiratga yaxshi ishlar bilan tayyorgarlik ko’rmay, bu dunyo hayotiga berilib ketishdan qaytaradi. O’tmishdagi tarixiy manbalardan biri “Qur’oni Karim”da shaxs xayotida sodir bo’ladigan hissiy holatlarga duch kelinganda undan talab etiladigan stressga barqarorlik yoki frustratsion tolerantlikka nisbat berilgan fikrlarni ko’plab uchratish mumkin. Bu manbada insonning ruhiy va ma’naviy kamolga yetishishiga to’sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri sifatida insondagi g’azabga e’tibor qaratiladi va u inson uchun ruhiy razolat sifatida talqin etiladi.

Alloh taolo mo’m-in-musulmonlarni har qanday holatda kuchli, dadil va sobitqadam bo’lishga chaqiradi. Bu haqda Qur’oni Karimda shunday marhamat qilgan:

“Bo’shashmanglar! Mahzun bo’lmanglar! Agar mo’m-in bo’lsalaringiz, sizlar ustunsizlar”. (Oli Imron surasi, 139-oyat).

Ey musulmonlar! Hech bo’shashmanglar, zaiflashmanglar, sizga yetgan musibatlarga, boshingizga tushgan og’irliliklarga xafa bo’lmanglar:

“Agar mo’m-in bo’lsalaringiz, sizlar ustunsizlar”.

Chunki aqiydalaringiz ustun, pok, olyi. Yagona Allohogha ishonasizlar va Unga bandalik qilasizlar. Ular esa turli-tuman but-sanamlarga, urf-odatlarga, o’zlariga o’xshagan odamlarga e’tiqod etadilar va o’shalarning roziliginini topish ilinjida ibodat qiladilar. Sizlarning hayot yo’llanmangiz Alloh taoloning huzuridandir. Ular esa o’zlarini tuzib olgan yoki o’zlariga o’xshagan odamlardan olingan «yo’llanma»ga amal qiladilar. Sizlar Allohnning yer yuzidagi xalifalarisiz. Ular hayotining mazmuni yeb-ichishdan iborat bo’lgan hayvon misolidirlar. Sizlar dunyoda hammani hidoyatga da’vat qiluvchilarsiz. Ular zulmatga, zalolatga chaqiruvchilardir. Sizlar ikki dunyo saodatiga egasiz. Ular ikki dunyo badbaxtligiga egadirlar.

Agar sizlar haqiqiy iymonli bo’lsangiz, doimo ustunsiz. Agar siz haqiqiy mo’m-in bo’lsangiz, bo’shashmang va xafa bo’lmang.

Tarix davomida musulmonlar haqiqiy iymonli bo’lgan chog’larida va bu haqiqatni o’zlarini tushunib yetgan davrlarida doimo ustun bo’lganlar. Agarchi harbiy jihatdan, kuch-quvvat bobida mag’lubiyatga uchrab turgan bo’lsalar ham.

Hozirgi kun musulmonlari aynan ushbu his-tuyg’uga, haqiqiy mo’m-inlikni va shu tufayli boshqalardan ustun ekanliklarini tushunib yetishga muhtojdirlar.

Ey musulmonlar! Agar haqiqiy mo’m-in bo’lsangiz, bo’shashmang, xafa bo’lmang, dunyoning ishi o’zi shunday. [2]

Shu oyatning o’zi ham amali bor musulmon kishiga hayotning har qanday qiyinchiligidagi bardoshli bo’lishga kifoya qiladi.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi:

Bir kuni Nabiy sollallohu alayhi vasallamning orqalaridan ulovlariga mingashib ketardim. “Ey bola!” – dedilar Payg’ambar sollallohu alayhi vasallam. “Men senga bir necha kalimalarni o’rgataman: Allohnning haqlarini saqlagin - U Zot seni saqlaydi. Allohnning haqlarini saqla - Uni qarshingda topasan. Agar so’rasang, Allohdan so’ra. Agar ko’mak tilasang, Allohdan tila. Bilginki, butun ummat senga bir manfaat yetkazmoq uchun jamlansalar ham, faqat Alloh taolo sen uchun yozib qo’yan manfaatni yetkaza oladilar. Agar ular senga bir zarar bermoq qasdida to’plansalar ham, faqat Alloh senga yozib qo’yan zararnigina bera oladilar. Qalamlar ko’tarilgan, sahifalar qurib bo’lgan”.

Imom Termiziy rivoyati. Hasan-sahih hadis.

Yana Termiziyydan boshqa bir rivoyatda shunday deyilgan: “Allohnning haqlarini saqla - Uni qarshingda topasan. Yorug’ kunlaringda Allohnini tanigin - og’ir kunlaringda U Zot seni taniydi. Bilginki, nima seni chetlab o’tgan bo’lsa, uning senga tegishi (taqdirda) yo’q edi. Senga yetgan narsaning (taqdirda) azalda) seni chetlab o’tishi yo’q edi. Bilginki, albatta g’alaba sabr bilan, yorug’lik-yechim mashaqqat bilan qo’lga kiritiladi, shubhasiz, og’irlilik bilan birga yengillik ham kelur”. [3]

Ushbu hadisda qazoi qadar masalasi ham ko’tarilgan. Ulamolarimiz “qazo” va “qadar”ni quyidagicha ta’riflaydilar:

“Qazo – Alloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qandoq bo’lishini azaddan bilishidir”.

“Qadar – o’sha narsalarning Allohnинг azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishidir”.

Ahli sunna va jamoa mazhabiga binoan, balog’atga yetgan musulmonga Alloh taolo bandalarning hamma ishini va maxluqtlarga bog’liq narsalarni avvaddan bilishiga imyon keltirishi vojib bo’ladi. Qazo va qadar aqiydasi Allohga imyon keltirish asosidagi Islom aqiydalaridan biri hisoblanadi. Bu aqiyda Alloh taoloni to’g’ri ma’rifat asosida kamol sifatlari bilan sifatlashga asoslangandir.

Ana shu sifatlardan biri Allohnинг ilmi, uning chegarasizligi, Alloh irodasining shomilligi va quadratining komilligidir. Qazo va qadar aqiydasi Allohnинг ana shu sifatlariga asoslangan aqiydadir. Shuning uchun ham qazoi qadarga imyon bo’lmasa, Allohga bo’lgan imyon tugal bo’lmaydi. [4]

Qazo va qadar masalari islom psixologiyada qimmatli tushuncha. Agar insonni u tushgan qiyin vaziyat qadarida borligini tushunsa, vaziyat uning uchun qiyinligini yo’qtadi yoki yengillashadi. Bu manbalar orqali yoshlarni hayotiy bardoshlilik sifatini yuqori darajada shakllantirish mumkin. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa ota-onalarning ham din borasidagi bilimlarini oshirish talab qilinadi.

Sabr hayotiy bardoshlilikni o’rganishda asosiy kategoriyalardan biridir. Quyida sabr haqida bir qancha hikmatli gaplarni ko’rib chiqamiz.

Junayd Bag’dodiy: “Sabr – inson bilintirmay g’amni ichiga yutishidir”.

Zunnun Misriy: “Sabr – haromdan saqlanish, sinovlarga xotirjam bo’lish va kambag’allikda shukr qilishdir”.

Umar ibn Xattob: “Bu dunyodagi eng yaxshi ne’matlarga go’zal sabrimiz orqali erishdir”.

Jaloliddin Rumiy: “Sabr – insonni maqsadiga eng tez olib boradigan yo’l ko’rsatuvchidir”.

“Hamma yaxshiliklar sabrdan keyin keladi.”

Abu Ali Ibn Sino: “Sabr deb, inson boshiga tushgan alam va chidab bo’lmaydigan og’riqni to yengunga qadar ushlab turishga aytildi”.

“Vahima qilish yarim kasallikdir. Xotirjamlik yarim sog’likdir. Sabr esa shifoning boshlanishidir”.

Ali Ibn Abu Tolib: “G’azab vaqtidagi ozgina sabr, keladigan minglab afsuslarni oldini oladi”.

Najmiddin Kubro: “Shariat va dinning poydevori sabr va ishonch ekan”.

Munoviy: “Sabr hissiy va aqliy og’irlilik va amallarga chidashdir”. [5]

Yusuf Xos Hojib:

“Qachon qahring kelsa, o’zingni tut, bardoshli bo’l,

Sabrli kishining sevinchi oldida.

Kishi sabr qilsa, buzilgan ishini to’g’rilaydi.

Kishi sabr qilsa, o’z tilagyni topadi,

Sabr qilib turguvchi oq qushni tutadi” [6]

Yuqorida fikrlari keltirilgan mutavvuf va qomusiy ulamolarning asarlari va hayot yo’li insonlarning komillikka yetishtirish, sog’lom ruhiyatga ega qilish bo’lgan. Bu yo’lda ular o’z maktablarini yaratgan, asarlar yozgan, davra suhbatlari tashkil qilish yo’li bilan harakat qilganlar.

Sabrdan tashqari taqvo ham hayotiy bardoshlilik shakllanishi uchun asosiy kategoriadir. Taqvoning mohiyatini qisqacha tushuntiradigan bo’lsak, u Alloh taolodan qo’rqishdir. Bundan tashqari Allohnинг buyruqlarini qilish, U qaytargan ishlardan qaytish ham taqvodir. Abdulloh ibn Mas’ud (r.a) aytadilarki: “Taqvo bu Alloh taologa itoat qilish, unga isyon qilmaslik. Uni doim eslab yurishlik, uni yoddan chiqarmaslik hamda bergen ne’matlariga shukr qilishlik va noshukrchilik qilmaslikdir”.

Bu dunyodagi eng kuchli azob –Ibnul Qoyyim o’zining “Ig’osatul lahfon” nomli kitobida aytganidek – ko’nglining notinch bo’lishi, qalbining xotirjamlikni yo’qtishi, qashshoqlikning uni hech tark etmasdan yonida yurishidir. Agar dunyo oshiqlari uning muhabbati bilan mast bo’lmaganlarida edi albatta ushbu azoblardan panoh izlagan bo’lar edilar. Har holda ularning ko’plari dunyodan nolib oh-voh qilib yuradilar. Azobning turlaridan yana biri: dunyo mashaqqatlariga va dunyo ahlining unga qarshi kurashlariga bardosh berishlik, ularning adovatlariga duchor bo’lishlik bilan qalb va jismning azob chekishidir.

Salaflardan birlari: “Kimda kim dunyoga muhabbat qo’ysa, bas, musibatlarga sabr – bardosh qilishga o’zini tayyorlasin”, degan ekan. Dunyoning oshig’i uch narsadan xoli bo’lmaydi: doimiy g’am, doimiy mehnat va tunganmas hasrat. Bunga sabab dunyoga muhabbat qo’yan uning ozginasiga erishar ekan albatta uning nafsi undan ham ko’prog’iga talpinib qoladi. Talpinib yeta olmaslik esa yana “noto’liqlikni” keltirib chiqaradi. Bundan ko’rinadiki, hayotiy bardoshlilikning keyingi kategoriysi qanoatdir. O’zida

bor narsalarga qanoat qilgan shax o'zini baxtli his qiladi. Natijada unga yetadigan qiyinchiliklar yengil qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hayotiy baroshlilikni shakllantish uchun bizda tarixiy manbalar yetarlicha. Bu xususiyatni shakllantirish uchun talablar Qur'oni Karim, hadislar, qomusiy va tasavvuf ulamolari asarlarida komil inson g'oyasi tarkibida berilgan. Ularni anglab yetish uchun shaxsda bilish jarayonlari, xususan, idrok va tafakkur talab darajasida rivojlantirish bosh maqsadimiz bo'lishi kerak. Shundagina turli hayot qiyinchiliklariga bardoshli bo'lgan, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlab topuvchi, topolmagan taqdirda tushkunlikka tushmaydigan, bir so'z bilan aytganda sog'lom psixikaga ega avlodlar tarkib topadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. G. Hussein Rassool. Islamic Psychology. 1st Edition. Routledge. Dealta Global Publishing Services, Chennai, India. 2021.
2. Tafsiri Hilol. 1-juz./Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va to'ldirigan qayta nashr. – T.: "Hilol-nashr", 2013.
3. Abu Zakariyyo Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Riyoz us-solihiyn (Solihlar gulshani). (Arab tilidan Anvar Ahmad tarjiması) – T.: "Sharq", 2015.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunnii aqidalar. – T.: "Hilol-nashr", 2019.
5. Hikmatlar.uz
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/yusuf-xos-hojib-1020-21>.